

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Tibbiyot fanlari” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Respublika aholisi o‘rtasida B, C, D virusli hepatitlar va ularning uzoq muddatli asoratlarning tarqalishini baholash 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: - Aholining turli yosh guruhlarida B, C va D virusli hepatitlar tarqalish darajasini aniqlash. - B, C va D virusli hepatitlarning surunkali shakliga o‘tish chastotasini aniqlash. - B, C va D surunkali virusli hepatitlarning uzoq muddatli asoratlarning (jigar fibrozisi, jigar sirrozi va gepatokarsinoma) rivojlanish chastotasi va o‘rtacha muddatlarini aniqlash. - Respublika aholisi o‘rtasida 2050 yilgacha jigar fibrozisi, jigar sirrozi va gepatokarsinoma bilan kasallanishning kutilayotgan sonini hisoblash. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Olingan natijalar Respublika ixtisoslashtirilgan epidemiologiya, mikrobiologiya, yuqumli va parazitlar kasalliklar ilmiy-amaliy tibbiyot markazida sinovdan o‘tkaziladi hamda Sog‘liqni saqlash vazirligi amaliyotiga tatbiq etiladi. Ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Sog‘liqni saqlash vazirligining xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Sog‘liqni saqlash vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.